

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti**

Tarix fakulteti

O'zbekiston tarixi kafedrası

O'zbekiston tarixi fani

***Mavzu:* MANG'ITLAR HUKMRONLIGI
DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI.**

Kurs ishi

2014-2015 o'quv yili

Bajaruvchi: 3-kurs talabasi Eshboyev R.

Ilmiy rahbar: Qo'shboqov H.

**Kurs ishi O'zbekiston tarixi kafedrası komissiyasida himoya qilindi va
_____ ga baholandi. (Bayonnoma № _____ 2015)**

Komissiya raisi: _____

Komissiya a'zolari: _____

Samarqand 2015-yil

MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI.

Reja:

- I. Kirish.
- II. Asosiy qism:
 - 1. Muzaffar ibn Nasrulloxonning davlatni boshqarish siyosati.
 - 2. XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligi.
 - 3. Buxoro amirlarining faoliyati.
- III. Xulosa.
- IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

1758 yil 24 martda Muxammad Raximbiy olamdan o'tgach mang'itlar uning amakisi Doniyolbiyni amirlikka nomzod qilib ko'rsatadilar. Markazlashtirish siyosatidan norozi bo'lgan viloyatlar xokimlari qo'zg'olon ko'taradilar. Ularga Kenagas, Yuz, Baxrin, Berkut va Saroy urug'lari boshliqlari xam qo'shiladilar. Feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar joniga tekkan xunarmand va dexqonlar Doniyolbiyni qo'llab quvvatladilar. Doniyorliy Buxoroliklar yordamida feadallar isyonini bostiradi. Isyonchilar shavqatsiz jazolangan bo'lsalarda , qarshilik to'xtamaydi. Natijada uning xokimiyati ancha cheklanadi. Fikrimizni quyidagi fakt tasdiqlashi mumkin. 1781 yilda rus xukumati Doniyolbiyga savdo shartnomasini tuzishni taklif etganda u 92 ta qabila boshliqlarining fikrini bilmasdan turib bu taklifga javob bera olmasligini bildirib xat yozadi. Bu xat markaziy xokimiyat ancha cheklanganidan dalolat beradi. Shaxarliklar bu xolatdan albatta rozi emas edilar. Bundan tashqari Donyorliy qo'shinni taminlash uchun yangi soliq joriy qiladi Bunga javoban 1784 yilda Buxoroliklar qo'zg'olon ko'taradilar. Doniyolbiy iste'foga chiqib taxtni o'g'li Shoxmurodga topshirishga majbur bo'ladi. Amiri Masum - Shoxmurod (1785-1800yy) kamtarin turmush tarzini kechirgan, din aqidalarini o'zlashtirib, taqvodor inson nomini qozongan shaxs edi. U markaziy xakimiyatni ancha mustahkamlashga erishadi. Shohmurod o'z qo'li bilan, shaxar aholisi ko'zi oldida, Arkda, Rahimbiy davridayoq katta xokimiyatga erishgan va xalqqa nisbatan adolatsizlik qilgan Davlat qushbegi va Nizomiddin Qozikalonni o'ldiradi va yirik feodallarga kim amirga qarshi borsa uni xam shunday jazo kutishini aytadi. Shoxmurod noshariy soliqlarni (xiroj, zakotdan tashqari) bekor qiladi. U amir unvoni bilan davlatni boshqargan. Taxtga esa Donishmandcha, Abdulg'ozilarni o'tqazadi.

1785 yilda Shohmurod pul islohotini o'tkazadi. Ungacha tilla va kumush tangalar tarkibida mis bo'lsada, ularning qiymati majburiy ravishda toza tilla va kumush tangalarga tenglashtirilgan edi. Shoxmurod probasi baland oltin va kumush tangalarni zarb qila boshlaydi. Bundan tashqari u aholiga malum haq olish evaziga Saroy qoshidagi pul zarb qiladigan ustaxonada o'z oltin va kumushlaridan tangalar zarb qilib berishga ruxsat beradi.

Shoxmurod sud tizimini demokratlashtirdi va unga shaxsan o'zi raxbarlik qildi. Viloyat va tumanlardagi qozilarni amirning o'zi tayinlar edi.. Ular o'z faoliyatlarida amir tomonidan maxsus ishlab chiqilgan huquqiy traktatga asoslanishlari lozim edi. Buxoroda 40 kishidan iborat Oliy Sud palatasi tuziladi va bu palata davlat ahamiyatiga ega bo'lgan va qiyin, munozarali ishlarni ko'rar edi. Palata ishida amirning o'zi ishtirok etgan. Bu palataga shariatqoidalari amaldorlarva boylar tomonidan buzilsa oddiy aholi vakillari, to xatto qullar xam ximoya so'rab murojaat qilishlari mumkin edi.

Shoxmurod qo'shinni moliyaviy taminoti tartibini o'zgartiradi. Lashkarboshilarga qo'shinga rahbarlik qilish evaziga berilgan yer mulklar tortib olinib, vazifasiga qarab maosh to'lanadigan bo'ldi.. Xurosonga xarbiy yurishlar tashkil qilinib olingan o'lja shariat qoidolari asosida taqsimlandi. Amudaryoning so'l qarg'og'idaggi yerlar bu yurish natijasida amirlikka qo'shib olindi. Murg'ob vohasi, Marv,, Balx yana Buxoro davlatiga qo'shildi. Mamlakatda markaziy xokimiyatni mustahkamlash, viloyatlarni bo'ysundirish maqsadida u Karmana, Shaxrisabz va Xo'jandga xarbiy yurishlar qildi. Afg'on hukmdoriga qarshi olib borilgan urushlar natijasida Shoxmurod Janubiy Turkistonni mamlakat tarkibiga qo'shishga erishdi Shoxmurodning ana shunday siyosati Markaziy xokimiyatni birmuncha mustahkamladi. Lekin uning o'g'li Amir Xaydar bu siyosatni davom ettira olmadi. Xokimiyat almashayotganda boshlangan ommaviy qo'zg'alonlar Xaydarni o'zbek bek va biylariga murojaat qilishga majbur qildi. Natijada ularning tasiri birmuncha kuchaydi.. Lekin shunday bo'lsada Shohmurod islohotlari o'zining samarasini berdiva Buxoroni markazlashgan davlat sifatida, absolyut monarxiya xukmronligi o'rnatilgan davlat sifatida saqlanib qolishiga sharoit yaratdi¹.

Amir Xaydar davrida soliqlar miqdori oshdi, davlat apparatidagi amaldorlar soni 4000 taga yetdi. Qo'shin miqdori xam ko'paydi. Faqat Buxoroning o'zidagina doimiy qo'shin tatkibida 12000 sarboz bor edi. Xarbiylar taminotining yarmi, maoshidan yarmi bug'doy berishdan iborat bo'lgan. Ular pilta miltiq, qilich, kamon va zambaraklar bilan qurollangan edilar.

Markaziy xokimiyatni mustahkamlash maqsadida u Shaxrisabz, Panjikent, Miyonqol, O'ratepa xududlariga xarbiy yurishlar qildi. Uning davrida Xiva xonining talonchilik yurishlari avjiga chiqdi. Xaydar qo'shin safiga dehqon va xunarmandlarni chorladi va Xivaliklarni mamlakatdan quvib chiqardi. Xiva xoni Eltuzarxon Amudaryoga cho'kib ketdi.

Axmad Donish malumotlariga ko'ra Amir Xaydar davri to'xtovsiz urushlar davri bo'lgan ekan. Har 3 – 6 oyda yangi urush boshlangan ekan. Uning davrida qo'shinning asosini o'zbek urug'lari emas o'troq aholi tashkil qila boshladi. Bu o'zbek urug'lari zodagonlarining tasirini susaytirdi. Xaydar davrida Shoxmurod davrida boshlangan. Buxoroning islom dini markazlaridan biriga aylanishi va ulamolarning kuchayishi jarayoni davom etdi.

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998y.

Muzaffar ibn Nasrulloxon (1819-Buxoro-1885)
(1860-yil 23-sentabr - 1885-yil 12-dekabr)

Mang'itlar sulolasidan bo'lgan Buxoro amiri. Otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan. Amir Nasrullo vafotidan so'ng, Buxoro taxtiga o'tirgan. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlagan. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, Shahrisabz, Darboz, Ko'lob, Baljuvon bekliklari va Qo'qon ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengdi (1863-1865). Mallaxon tomonidan taxtdan tushirilgan Qo'qon xoni Xudoyorxon Buxoroga qochib kelganida xonlik taxtini qayta egallashi uchun unga harbiy yordam bergan (1861). Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O'rta Osiyo xomliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda umidini uzmay, u Najmiddinxo'ja boshliq ekchilarni Peterburgga jo'natdi (1865-yil iyul). Biroq, ko'zlangan maqasadga erishilmay, ikki o'rtada harbiy harakatlar boshlandi. Muzaffar qo'shini bilan general Romanovski boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan Oratepa o'rtasidagi Erjar(Maydayulg'un) da bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan(1866-y. 8-may). Muzaffar muftiy Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab, Istanbulga yuborsa ham rad javobini olgan. 1868-yil 2-3-iyunda Zirabuloq jangida mag'lubiyatga uchragach, 1868-yil 23-iyunda Samarqandda imzolangan Rossiya-Buxoro sulh shartnomasiga ko'ra, Buxoro amirligi Rossiyaga tob' bo'lib qolgan. O'g'li va valiahd Abdulmalik (Katta to'ra) Rossiya bosqini va otasi hukmronligiga qarshi Shahrisabz va Kitobda qo'zg'olon ko'targanda Muzaffar rus qo'shinlari yordamida uni bostirgan (1870).

Muzaffar davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi kuchayishi bilan bir qatorda shialarning ta'siri ham ortgan. Buxorodagi Eshon Imlo mozorida dafnetilgan. 40 yillarda Buxoro amirligi bilan Qo'qon xoni o'rtasidagi ziddiyat keskinlashdi. Amir Nasrulloxon Qo'qonni bosib olish maqsadida, Madalixon dan norozi bo'lgan kishilarni Buxoroga to'plab boshladi. 1840 yili Nasrulloxon Qo'qonga elchi yuborib, maktub orqali urf – odatlarga zid ish qilgani uchun Madalixonni qoraladi. Bunga javoban Buxoro elchilari qamaldi. Shu bahonada urush harakatlari boshlanib ketdi. Madalixonning 400 sarboziga qarshi 800 kishi bilan hujum boshlagan Nasrulloxon O'ratepa yaqinidagi Peshagar qal'asida Madalixon qo'shinlarini yengib orqaga qaytdi. 1841 yil qayta hujum boshlab, O'ratepani, Toshkentni qo'lga kiritdi. Shu yil kuzda tuzilgan sulhga ko'ra Qo'qon xoni Buxoro amirligiga O'ratepa, Zomin va Toshkentni berdi. Xo'jand va unga qarashli yerlar Madalixonning ukasi Sulton Maxmudga berilib, u mustaqil xonlik deb e'lon qilindi. Amir Nasrullo va' dalariga uchgan Sulton Maxmud o'z atrofiga Madalixon dan norozi kishilarni to'plab. Qo'qon xonligini qo'lga kiritish uchun astoyidil kirishdi. Sulton Maxmud hukmronligi va

Qo'qon xonligining 2 ga bo'linishi uzoqqa cho'zilmadi. Ularning onasi Mohlaroyim (shoira Nodira) o'g'illarini yarashtirishga muvaffaq bo'ldi. Xo'jand Qo'qonga birlashtirildi..sulton Maxmud Toshkent begi qilib tayinlandi. Bundan norozi bo'lgan Amir Nasrulloxon 1842 y bahorida 10000 kishilik qo'shin bilan Qo'qonga yurish boshladi. Saroy ahllari, sarbozlar va xalqning o'ziga munosabati o'zgarganini sezgan Madalixon Namanganga qochdi. Amir Nasrullo qarshiliksiz, Qo'qonni egalladi.U Madalixon, uning o'g'illari Muxammad Amin bilan Muzaffarxon, Sulton Maxmud, Moxlaroyim va xonning xotinlarini asir olib qatl qildi. Nasrulloxon 250 asir va 40 arava qimmatbaho mollar bilan Buxoroga qaytdi. Asirlar orasida yuzboshi Musulmonqul ham bor edi.Amir Nasrulloxonning Qo'qonni vaxshiylarcha talashi va o'zini Turkiston podshosi deb e'lon qilishi, Xiva xoni Alloqulixonning nafsoniyatiga tegdi.Amirning Qo'qonligidan foydalanib, Buxoro yerlarini talay boshladi. Nasrulloxon Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. Qo'qon xonligi aholisining Amir Nasrullo bosqinchiligiga qarshi noroziligi kuchayib bordi.Musulmonqul xiyla bilan asirlikdan qochib Qo'qonga keldi. 1842 yili qo'qonliklar qo'zg'olon ko'tarib amir Nasrullo odamlaridan ko'pini o'ldirishadi va Sheralini xon qilib ko'tarishadi. Ibrohim xayol esa Buxoroga qochadi².

Buxoro amirligi (XVIII asr ikkinchi yarmi –XIX asrning birinchi yarmi)

Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743 yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747 yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'liga olishga kirishadi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi².

²O'zbekiston SSR tarixi.I-II tom.T.: «Fan» 1970y.

Muhammad Rahim 1756 yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, **Mang'itlar sulolasiga** asos soladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi **Buxoro amirligi** deb atala boshlandi. Amirlikda

hokimiyat 1920 yilgacha **Mang'itlar sulolasi** qo'lida bo'ldi. Muhammad Rahim xukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi. O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina bekliklarga - Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zg'olonini bostirib, ularning xarbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istexkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi. Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi. Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, xokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar xarajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi. Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Buxoro amirlari muntazam olib borgan urushlar katta mablag' sarflashni talab qilgan. Xarbiy xarajatlarni qoplash maqsadida amirlar qo'shimcha soliqlar joriy qilgan. Bunday soliqni xatto amiri Masum deb nom olgan Shoxmurod xam joriy qilgan edi. Bu soliqning nomi jul bo'lib u 20 tangani yoki 4 oltin rublni tashkil qilgan Aholidan soliq to'plash viloyat bek, xokimlari, amlokdlorlari tomonidan amalga oshirilib, ular soliqning anchagina qismini o'z ixtiyorlariga qoldirish huquqiga ega bo'lganlar. Soliq miqdori soliqchilar tomonidan aniqlangan. Bu xaqda maxsus daftarga qayd qilingan. Lekin undagi malumotlarni xech kim tekshirmagan. Daftar ichidagi malumotlar bek va amlokdlorlarning siri bo'lib qolavergan. Bunday xolat suiiste'molchilikni avjiga chiqarib yuborgan. Xalqning aXVoli, ayniqsa qurg'oqchilik va qahatchilik yillarida og'irlashgan. Masalan, 1809 va 1811 yillarda yog'ingarchilik oz bo'lishi oqibatida lalmi yerlardan xosil olinmagan. Sug'oriladigan yerlardan olinadigan xosilning miqdori kam bo'lgan. Mamlakatda boshlangan ochlikning ustiga 1810 yil 16 mayda kuchli tabiiy ofat bo'ron natijasida cho'lga yaqin bog' va ekinzorlarni qum bosadi.

Bundan tashqari 1810 yil qishi xam qattiq kelgan edi. Natijada oziq ovqatlarning narxi keskin ko'tariladi. Bug'doy defisit maxsulotga aylanib, bozorlar bo'shab qoladi. Ochlik mamlakatning anchagina xududlarini qamrab olgan sharoitda amir va uning yaqinlari xalqqa yordam qo'lini cho'zmaydilar.. Fazablangan xalq Buxoroning Registon maydoniga to'planadi. Qo'rqib ketgan amir Buxorodan qochadi. Ulamolar xalq orasiga kirib borib ochlikdan qutilishning yagona yo'li toat ibodat qilish va Ollohdan madad so'rashda deb aytadilar. Baxovuddin Naqshbandiy mozori atrofiga to'plangan xalq 3 kun davomida toat ibodat qiladi. Bu orada amir sarbozlari Buxoroliklarning uylarini tintuv qiladilar. Topilgan bug'doy davlat foydasiga musodara qilinib 1 botmonini (8pud) 5 oltin rublga sota boshlaydilar. Oddiy xalq uchun bu juda yuqori narx bo'lgan. Norozi bo'lgan xalq mamlakatning Kimning kumushi(nuqrasi) bo'lsa, zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar — pul olishi mumkin edi.ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Yangi pul tijorat ishlari rivojiga yo'l ochib berdi. Barcha viloyatlarga yangi hokimlar tayin qildi, har shahar va qishloqqa qozi tayinladi. Bu bilan hokimlar o'z boshimchaligiga barham berdi. Shohmurodning o'zi qozilarga dastur bo'ladigan fiqh haqida «Ayn ul-hikmat» nomli risola yozdi va ilgari surulgan qoidalarini barcha viloyatlarga joriy qildi. Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi. Shariat qonunlarini amalga tadbqiq etish maqsadida raislik (muhtasib) mansabini joriy qildi. Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishini karvon yo'llarining xatarsizligini ta'minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo'ldi. Zarafshon vodiysi, Amudaryo havzasi va Qashqadaryo vohasi qadimgidek obod bo'ldi. Davlat mablagi hisobidan anhorlar chiqarilib, tashlandiq yerlar obod etildi. Natijada, davlat xazinasida tushum ko'paydi. Amir Shohmurod 1789—1790-yillari Marvda o'z hokimiyatini o'rnatib, marvliklarning bir necha o'n minglik kishini Samarqand vaBuxoroga ko'chirtiradi. Shundan so'ng, eskidan Samarqand yoki Buxoro (ya'ni poytaxt ma'nosida) izmida bo'lib kelgan Balh Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emas edi. Zero, 1747-yildan boshlab Balh Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o'z tasarrufiga olgan Afg'oniston hududida tashkil topgan durroniylar sulolasi namoyondasi Temurshoh ham bo'sh keladiganlardan emas edi. Xullas, o'zaro kurashlar qattiq bo'lsada sezilarli natija chiqmagan. Buxoro xonligini birlashtirish va markazlashtirish uchun kurashni davom ettirgan. Mang'itlar sulolasining namoyandasi bo'lgan Shohmurod Buxoroda (1785-yilda) xalq qo'zg'olonidan keyin taxtga o'tirib, hokimiyatni o'z qoliga olgan. Shohmurod qo'zg'olonni bostirish uchun Buxoro aholisiga yon berishga majbur bo'ldi: u shahar aholisiga tantanali ravishda Tarxon yotrlig'I topshirdi. U muoliyaviy, ma'muriy, harbiy va sud islohotlarini o'tkazishga

majbur bo'ldi. Pul muomalasida, soliq ishida sud va ma'muriy boshqaruv ishlarida ma'lum tartib o'rnatishda hamda savdogarlarni va hunarmand kosiblarni o'zlarining mulklariga feodallar tomonidan qilinayotgan Taaddiylardan birmuncha qutqarish orqali davlat hokimiyatini mustahkamlashga intildi. Nomiga xon qilib ko'tarilgan Abdulg'azi nomidan 1785-yilda Shohmurod tomonidan o'tkazilgan pul islohoti ilgarigi qadri past tangalardan tashqi ko'rinishi boshqacha bo'lgan kichikroq va vazni kamroq bo'lgan to'la qimmatli kumush tangalarni chuqarishdan iborat bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda, u bemalol tanga zarb ettirish sistemasini joriy etdi. Shohmurodning bu islohoti XVII—XVIII asrlarda pul muomalasiga ko'p putur yetkazgan chayqovchilikka va tangalarni buzishga yo'l qo'ymasligi lozim edi. Shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarh tushmol, yasoq, oliq va soliq deb ataladigan bir necha soliqlarni, shuningdek, ilgarigi xonlar hunarmandlardan olishga odatlanib qolgan o'lponlarini va ularga yuklayotgan tekin mehnat majburiyatlarni bekor qildi. Biroq, darobmadlar kamayib ketgankigi va katta qo'shin saqlab turish zarur bo'lib qolganligi buni aholidan «Jul» deb atalgan va shariatga also ta'luqli bo'lmagan pul solig'ini tez olib turishga majbur bo'ldi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'imlar miqdori kamaytirildi. Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsada, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari xujunga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinar, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva molar haydab ketilar edi.

Yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib darvishlik suluki soliqlaridan biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni hurmat bilan «amiri ma'sum» (begunoh amir) deb ataydi. Shohmurod darvishona hayot kechirar edi. Pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratgan. Uning xalq orasida obro'si katta bo'lganligi uchun Doniyolbiy uni o'ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo'lgan. O'n ikki nafar ukalaridan birortasi ham Shohmurodni yoqtirmas edi.

Amirlik taxtiga chiqqach (1785), ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi. Hokimiyat tepasiga kelgach, zolim qushbegi va qozikalon Nizomiddinni qatl ettiradi. Harbiy ishlar, qozilik ishlarini shariat qonunlari asosida tashkil qiladi. Hokimiyat boshqarish tartiblarini isloh qilib, siyosiy tarqoqlikka barham beradi. Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutgan. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Jumladan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylak kiygan. Boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kovush kiygan.

Marv yaqinida Islomobod shahrini qurdirgan. XVIII asrning 20-yillarida boshlangan o'zaro kurashlar natijasida Samarqand talangan, vayrona holiga tushib qolgan edi. Amir Shohmurod esa ko'plab quruvchi, koshinpaz va naqqosh ustalarni tevarak atrofdan olib keltirib, Samarqand shahrini qayta tiklashni buyurdi. Qayta qurilajak shahar tarhini Amir Shohmurodning o'zi chizib bergan. Amir Shohmurod bundan tashqari, G'uzor tumanida madrasa va masjid qurdirgan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu qurilib, «Toqi musaddas» deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrislarni Shohmurodning o'zi tayinlagan. Talabalar va mudarrislarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan. Amir Shohmurod ba'zi islohatlar o'tkazib davlatni mustahkamlashga erishdi: Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Otasi Doniyolbiy davrida joriy etilgan turli soliqlarni bekor qilgan. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askarlavozimini joriy qildi. Otasi davrida qisqartirilgan vaqf yerlari miqdorini oshirdi. Bu bilan islom ruhoniylari e'tiborini qozondi. Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohati muhim ahamiyat kesb etdi: Shohmurod sof kumushdan tanga zarb qilishni buyurdi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida paxta, tamaki, kunjut, zig'ir xam yetakchi o'rinlarni egallaganlar. Tog' oldi rayonlarida daryo va ariqlar havzalarida bog'dorchilik va polizchilik juda xam rivojlangan edi.. Dehqonchilik ehtiyojlari irrigasiya inshootlariga etiborni kuchaytirishni talab qilgan. Bunga ayniqsa Shohmurod davrida katta etibor berilgan. Darg'om tamirlanib, Qozonariq, Toymonariq, To'g'izariq kanallari aynan shu davrda qazilgan edi. XVIII asr oxirlarida ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlashish jarayoni kuchaygan. Yangi barpo etilgan aholi yashash punktlari urug'lar nomi bilan atalgan (Kenagas, Sanchiqul, Qo'ng'iro't, Mang'it, Xazora va boshqalar)

Feodal mulkning shakllari bu davrda xam amlok (davlat), mulk va vaqfdan iborat bo'lgan. Farqi shundaki mulk yani konkret shaxslarga tegishli bo'lgan yerlar miqdori bu davrga kelib ancha ko'paygan. Vaqf yerlarning xajmi xam oshgan.

Soliq tizimi xam deyarli o'zgarmagan. Soliqning asosini xiroj tashkil qilgan. Yangi soliqlardan kafsan (amlokдорlar taminoti uchun) olinib boshlangan. Yana bir yangilik: agar Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida soliq natura shaklida olingan bo'lsa XIX asrning boshlaridan etiboran pul bilan olinadigan soliq xam ko'paya boshlagan. Qishloq xo'jaligi, xunarmandchilikda qullar mehnatidan foydalanish davom etgan. Qullar asosan Janubiy Ozarboyjon va Volga bo'yi asirlaridan iboraat bo'lgan

Amirlik tabiiy xom ashyo zaxiralariga boy edi. Lekin feodal ishlab chiqarish munosabatlari, mutaxassislarning yo'qligi, daqiyunusdan qolgan texnologiya-bularning barchasi konchilik sanoatining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. O'sha davrdayoq oltin, mis, temir, ko'mir, neft, qimmatbaxo toshlar, marmar, grafit zaxiralari aniqlangan edi. Lekin ulardan tabiiy boyliklarni qazib olish primitiv usullar

bilan, juda oz miqdorda amalga oshirilar edi. Qazib olinib eritilgan metall aholi ehtiyojini qondira olmas edi. Shuning uchun Buxoro amiri Rossiya xukumatiga tabiiy boyliklarni qazib olishga yordam berishni so'rab murojaat qiladi.. Lekin ish tabiiy boyliklarning yangi zaXiralarini aniqlash bilan chegaralanadi. Ularni ishga solish uchun katta kapital mablag'lar zarur edi.

Amirlikda hunarmandchilik, ayniqsa uning to'qimachilik sohasi nixoyatda rivojlangan edi. Maxsulot o'rta asrlar texnologiyasi bilan primitiv usulda ishlab chiqarilgan. XIX asrga kelib dunyoning yetakchi mamlakatlarida yangi texnologiya joriy qilinib, fabrika zavodlar ishlab chiqarishi vujudga kelgan edi. Lekin Buxoro bu jarayondan chetda edi. Ishchi kuchi va xom ashyoning arzonligi Buxoro amirligida yetishtirilgan maxsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qoldi. Shuning uchun amirlikda yangilikga intilish vujudga kelmadi. Rus savdogarlari xam amirlikda xunarmandchilikning rivojlanishidan manfaatdor edilar. Chunki bu soxa rivojlanmasa aholi Rossiyadan kelayotgan qimmatbaho mahsulotlarni sotib ola olmas edi. Shuning uchun ular Buxoro xunarmandlari mahsulotlarining Rossiya va Yevropa bozorlarida sotilishiga xatto yordam xam ko'rsatgan edilar.

XIX asrning o'rtalariga kelib temirchilik, misgarlik mahsulotlari Rossiyadan keltirilgan xom ashyodan ishlab chiqarila boshlandi. Xunarmandchilikning taraqqiy etganligi savdo munosabatlarining kengayishiga sharoit yaratdi. Buyuk Ipak Yo'li faoliyatining to'xtashi savdoga salbiy tasir etgan bo'lsada, savdo xajmi ko'payganligi kuzatildi. Lekin Buxoro amirligida savdo sotiq ishlarini naxzorot qilish, uni tartibga olish, mamlakat uchun istiqbolli yo'nalishlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratishga etibor berilmadi. Qanday tovar olib kelinganligiga qaramay uning umumiy qiymatidan boj soliqlari va boshqa to'lovlar olinaverdi. Mahalliy va xorijiy savdogarlar manfaatlari XIsobga xam olinmas edi, ximoya ham qilinmas edi. Bu esa o'z navbatida birinchi navbatda mamlakat, halq manfaati yo'lida emas o'z manfaati yo'lida mehnat qilishga olib keldi.

Buxorodagi ichki savdo asosan oziq ovqat va kishilar ehtiyojini qondiruvchi xunarmandchilik maxsulotlari savdosidan iborat bo'ldi. Amirlikdagi savdoning markazlari Buxoro, Samarqand va Qarshi shaxarlari bo'lgan. Narx navo asosan ana shu shaxarlar bozorlarida belgilangan. Buxoroda savdo yanvar may oylarida juda avjiga chiqqan. Ana shu davrda yarmarkalar ishlagan. Shaxarda chet ellik savdogarlar uchun maxsus 10ta karvonsaroy qurilgan edi. 1840 yillarga kelib karvonsaroylarning soni 24 taga yetgan. Amirlik savdosida muhim o'rinni Rossiya egallagan. 1787-1796 yillarda Buxorodan 4,5 mln rubllik maxsulot Rossiyaga keltirilgan. Xudi shu vaqtda Rossiyadan Buxoroga 3,6 mln so'mlik maxsulot eksport qilingan. XVIII asrning oxirlarida Buxorodan katta miqdorda oltin va kumush keltirilgan bo'lsa XIX asrdan boshlab aksincha Rossiyadan Buxoroga oltin va

kumush tangalar olib keltirilgan(80%tovar, 20% oltin va kumush tanga). XIX asrning o'rtalariga kelib bir yilgi import va eksport xajmlari 4 mln rubldan iborat bo'ldi.

Buxoro amirlari muntazam olib borgan urushlar katta mablag' sarflashni talab qilgan. Xarbiy xarajatlarni qoplash maqsadida amirlar qo'shimcha soliqlar joriy qilgan. Bunday soliqni xatto amiri Masum deb nom olgan Shoxmurod xam joriy qilgan edi. Bu soliqning nomi jul bo'lib u 20 tangani yoki 4 oltin rublni tashkil qilgan. Aholidan soliq to'plash viloyat bek, xokimlari, amlokdorlari tomonidan amalga oshirilib, ular soliqning anchagina qismini o'z ixtiyorlariga qoldirish huquqiga ega bo'lganlar. Soliq miqdori soliqchilar tomonidan aniqlangan. Bu xaqda maxsus daftarga qayd qilingan. Lekin undagi malumotlarni xech kim tekshirmagan. Daftar ichidagi malumotlar bek va amlokdorlarning siri bo'lib qolavergan. Bunday xolat suiiste'molchilikni avjiga chiqarib yuborgan. Xalqning aXVoli, ayniqsa qurg'oqchilik va qahatchilik yillarida og'irlashgan. Masalan, 1809 va 1811 yillarda yog'ingarchilik oz bo'lishi oqibatida lalmi yerlardan xosil olinmagan. Sug'oriladigan yerlardan olinadigan xosilning miqdori kam bo'lgan. Mamlakatda boshlangan ochlikning ustiga 1810 yil 16 mayda kuchli tabiiy ofat bo'ron natijasida cho'lga yaqin bog' va ekinzorlarni qum bosadi. Bundan tashqari 1810 yil qishi xam qattiq kelgan edi. Natijada oziq ovqatlarning narxi keskin ko'tariladi. Bug'doy defisit maxsulotga aylanib, bozorlar bo'shab qoladi. Ochlik mamlakatning anchagina xududlarini qamrab olgan sharoitda amir va uning yaqinlari xalqqa yordam qo'lini cho'zmaydilar.. Fazablangan xalq Buxoroning Registon maydoniga to'planadi. Qo'rqib ketgan amir Buxorodan qochadi. Ulamolar xalq orasiga kirib borib ochlikdan qutilishning yagona yo'li toat ibodat qilish va Ollohdan madad so'rashda deb aytadilar. Baxovuddin Naqshbandiy mozori atrofiga to'plangan xalq 3 kun davomida toat ibodat qiladi. Bu orada amir sarbozlari Buxoroliklarning uyalarini tintuv qiladilar. Topilgan bug'doy davlat foydasiga musodara qilinib 1 botmonini (8pud) 5 oltin rublga sota boshlaydilar. Oddiy xalq uchun bu juda yuqori narx bo'lgan. Norozi bo'lgan xalq mamlakatning Kimning kumushi(nuqrasi) bo'lsa, zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar — pul olishi mumkin edi.ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Yangi pul tijorat ishlari rivojiga yo'l ochib berdi. Barcha viloyatlarga yangi hokimlar tayin qildi, har shahar va qishloqqa qozi tayinladi. Bu bilan hokimlar o'z boshimchaligiga barham berdi. Shohmurodning o'zi qozilarga dastur bo'ladigan fiqh haqida «Ayn ul-hikmat» nomli risola yozdi va ilgari surulgan qoidalarini barcha viloyatlarga joriy qildi. Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi. Shariat qonunlarini amalga tadbiq etish maqsadida raislik (muhtasib) mansabini joriy qildi.Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishini karvon yo'llarining xatarsizligini ta'minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo'ldi. Zarafshon vodiysi, Amudaryo havzasi va

Qashqadaryo vohasi qadimgidek obod bo'ldi. Davlat mablagi hisobidan anhorlar chiqarilib, tashlandiq yerlar obod etildi. Natijada, davlat xazinasida tushum ko'paydi. Amir Shohmurod 1789—1790-yillari Marvda o'z hokimiyatini o'rnatib, marvliklarning bir necha o'n minglik kishini Samarqand va Buxoroga ko'chirtiradi. Shundan so'ng, eskidan Samarqand yoki Buxoro (ya'ni poytaxt ma'nosida) izmida bo'lib kelgan Balh Maymana, Andxud kabi viloyatlarni ham qaytarib olish payiga tushadi. Ammo bu oson emas edi. Zero, 1747-yildan boshlab Balh Badaxshon, Andxud, Maymana, Sharqiy Seiston, Balujiston, Sind, Kashmir, Panjob kabi viloyatlarni o'z tasarrufiga olgan Afg'oniston hududida tashkil topgan durroniylar sulolasi namoyondasi Temurshoh ham bo'sh keladiganlardan emas edi. Xullas, o'zaro kurashlar qattiq bo'lsada sezilarli natija chiqmagan. Buxoro xonligini birlashtirish va markazlashtirish uchun kurashni davom ettirgan. Mang'itlar sulolasining namoyandasi bo'lgan Shohmurod Buxoroda (1785-yilda) xalq qo'zg'olonidan keyin taxtga o'tirib, hokimiyatni o'z qoliga olgan. Shohmurod qo'zg'olonni bostirish uchun Buxoro aholisiga yon berishga majbur bo'ldi: u shahar aholisiga tantanali ravishda Tarxon yotrlig'I topshirdi. U muoliyaviy, ma'muriy, harbiy va sud islohotlarini o'tkazishga majbur bo'ldi. Pul muomalasida, soliq ishida sud va ma'muriy boshqaruv ishlarida ma'lum tartib o'rnatishda hamda savdogarlarni va hunarmand kosiblarni o'zlarining mulklariga feodallar tomonidan qilinayotgan Taaddiylardan birmuncha qutqarish orqali davlat hokimiyatini mustahkamlashga intildi. Nomiga xon qilib ko'tarilgan Abdulg'ozini nomidan 1785-yilda Shohmurod tomonidan o'tkazilgan pul islohoti ilgarigi qadri past tangalardan tashqi ko'rinishi boshqacha bo'lgan kichikroq va vazni kamroq bo'lgan to'la qimmatli kumush tangalarni chuqarishdan iborat bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda, u bemalol tanga zarb ettirish sistemasini joriy etdi⁴.

⁴Usmonov Q, Sodiqov M "O'zbekiston tarixi" (1917–1991-yillar) "Sharq" 2000, 5-16 betlar.

Shohmurodning bu islohoti XVII—XVIII asrlarda pul muomalasiga ko'p putur yetkazgan chayqovchilikka va tangalarni buzishga yo'l qo'ymasligi lozim edi. Shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarh tushmol, yasoq, oliq va soliq deb ataladigan bir necha soliqlarni, shuningdek, ilgarigi xonlar hunarmandlardan olishga odatlanib qolgan o'lponlarini va ularga yuklayotgan tekin mehnat majburiyatlarni bekor qildi. Biroq, darobmadlar kamayib ketgankigi va katta qo'shin saqlab turish zarur bo'lib qolganligi buni aholidan «Jul» deb atalgan va shariatga also ta'luqli bo'lmagan pul solig'ini tez olib turishga majbur bo'ldi. Shohmurod ma'muriy islohotni buxoroning oliy amaldorlari Davlatqushbegini va Nizomiddin qozikalonni

o'z qo'li bilan qatl etishdan boshladi. So'ngra viloyatlarning beklari va qozilari olib tashlanib, ularning o'rniga yangi amirning hamfikrlari tayinlanadi.

Amir Xaydardan keyin taxtga uning uchinchi o'g'li Nasrullo o'tiradi(1826-1860). U juda shafqatsiz odam bo'lgan. Shuning uchun oddiy axoli uni Amir Qassob deb xam atar edi. Nasrullo xatto o'z tug'ishgan akalarini xam ayamagan. Taxtni egallash uchun akalari Xusayn va Umarni o'ldirish xaqida buyruq bergan. Xukmronligining birinchi oyida o'z xokimiyatini mustaxkamlash uchun xar kuni 50-100 ta odamni qatl ettirgan. Ular orasida unga yordam berganlar xam bor edi.. Xarbiy yurishlar vaqtida xam bo'ysuntirilgan aholiga shavqatsiz munosabatda bo'lgan. Ozgina gunoXI bo'lganlarni xam o'ldirtirib yuborgan. O'z atrofidagi zodagonlarni xam u ayab o'tirmagan. Ularga ishonmasdan Nasrullo oddiy aholi orasidan yetishib chiqqan amaldorlarni o'ziga yaqinlashtiradi va ularni o'z irodasiga bo'ysuntiradi.

Nasrullo davrida Buxoroda birinchi marta muntazam qo'shin tuziladi. Uning tarkibida 40 ming sarboz bo'lgan. Lekin ulardan faqat4 mingtasigina piltal miltiq bilan qurollangan edi.Nasrullo Buxoroda zambaraklar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Amir Xaydar davrida u bilan yaxshi munosabatda bo'lgan Shaxrisabz xukmdorlari Nasrullo xokimiyati o'rnatilgach o'z mustaqilliklarini elon qiladilar. Nasrullodan norozi bo'lgan zodagonlarning ko'pchiligi Shaxrisabzga qochib boradi.Amir Shaxrisabzni bo'ysindirish uchun bir necha bor yurish qiladi.Lekin faqat 1856 yilga kelibgina bunga erishadi.

Nasrullo o'z mamlakati xududlarini qo'shnilar hisobidan kengaytirishga xarakat qildi. 1842 yilda u qisqa muddatga bo'lsada Qo'qonni bo'ysuntirishga muvoffaq bo'ldi. Muxammad Alixon uning buyrug'i bilan o'ldirilgan edi. Lekin Xiva xoni Buxoroga qarshi xarakat boshlaganini eshitib u asosiy kuchlari bilan Xivaga o'tlanadi va 1843 yilda Xazorasp yaqinida Xiva xoni qo'shinlaridan yengiladi. Bungacha Xiva xoni Olloquli Chorjuy xududlarini egallagan edi. Lekin Chorjuyda va Xozaraspda erishilgan yutuqlari Olloquli mustaxkamlay olmaydi, chunki mamlakatga qozoqlar bostirib kiradilar.

Shunday qilib Amir Nasrullo davri xam mamlakatda markaziy xokimiyatni mustaxkamlanishi uchun feodallar bilan, O'ratepa , Xo'jand xududlari uchun Qo'qon xonligi bilan, Chorjo'y , Marv xududlari uchun Xiva xonligi bilan urushlar davri bo'ldi. Bu urushlar natijasida Buxoroda xo'jalikga katta zarar yetkazildi. Lekin shunday bo'lsada markaziy xokimiyatning mustahkamlanganligi bu urushlarning ijobiy oqibati bo'ldi.

XVIII asrda Buxoro amirligining vujudga kelishi natijasida mamlakatda markaziy xokimiyat mustahkamlangan bo'lsada feodal tarqoqlikka butunlay barxam berilmadi. Masalan, Shaxrisabz uzoq vaqt mustaqilligini saqlab qoldi. Buxoro amirligining markazi Zarafshon vodiysi edi. Eng yirik shaxarlari Samarqand va

Buxoro bo'lgan. Rus elchisi Florio Beneveni aytishicha Buxoroda 12 ta darvoza bo'lib, 15000 oila istiqomat qilgan. Shaxar XVIII asrning 70 yillarida qalin devor bilan o'rab olingan Shaxar markazida Ark, Minorai Kalon, bozor joylashgan, madrasalar miqdori 8 ta bo'lgan. XIX asrning o'rtalariga kelib madrasalar soni 100taga, machitlar soni 200 taga yetgan. Samarqand amirlik davriga kelib o'z nufuzini ancha yo'qotadi. Ko'chmanchilarning xujumlari shaxar aholisining ancha qismini ko'chib ketishga majbur qiladi. Mamlakat aholisining aksariyatini o'zbeklar tashkil etadi, tojiklarning xam miqdori katta bo'lgan. Ulardan tashqari turkmanlar, qozoqlar, yahudiylar, arablar, lo'lilar, eronilar xam istiqomat qilgan. Qoraqolpoqlar 100000 ta, Yaxudiylar 4000 ta, qozon tatarlari 3000 ta bo'lgan.

Shoxmurod xukmronligining o'XIriga kelib mamlakat siyosiy hayoti barqarorlashadi. Amirlikning markazlashuv jarayoni xam asosan oxiriga yetadi. Xozirgi Buxoro, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Turkmanistonning g'arbiy, Tojikistonning janubiy viloyatlari, afg'on Turkistonining katta qismi amirlik tarkibiga kiritilgan. Mamlakat aholisining aksariyati XIX asrda o'troq turmush tarzini kechirayotgan bo'lsada cho'l va cho'l oldi aholisi xali xam yarim ko'chmanchi edi. Mamlakatning umumiy aholisi 2 mln kishini tashkil etgan.

Amirlik qishloq xo'jaligining asosini sug'orma va lalmi dehqonchilik tashkil qilgan. Suniy sug'oriladigan yerlardan yuqori hosil olingan. Lalmi dehqonchilik ekstensiv xarakterga ega bo'lgan. Dehqonchilik uchun yaroqli lalmi yerlar konkret shaxsga biriktirilmagan. Chunki bu yerlardan yaxshi xosil olib foyda qilish imkoniyatlari tor bo'lgan. Shuning uchun agar egalari ishlov bermay qo'ysa bu yerlar boshqa kishiga berib yuborilgan. Yerlarga asosan don ekinlari ekilib ular umumiy ishlov beriladigan yerlarning 50%ini egallaganlar.

Qishloq xo'jaligi ekinlari orasida paxta, tamaki, kunjut, zig'ir xam yetakchi o'rinlarni egallaganlar. Tog' oldi rayonlarida daryo va ariqlar havzalarida bog'dorchilik va polizchilik juda xam rivojlangan edi.. Dehqonchilik ehtiyojlari irrigasiya inshootlariga etiborni kuchaytirishni talab qilgan. Bunga ayniqsa Shoxmurod davrida katta etibor berilgan. Darg'om tamirlanib, Qozonariq, Toymonariq, To'g'izariq kanallari aynan shu davrda qazilgan edi. XVIII asr oxirlarida ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlashish jarayoni kuchaygan. Yangi barpo etilgan aholi yashash punktlari urug'lar nomi bilan atalgan (Kenagas, Sanchiqul, Qo'ng'irot, Mang'it, Xazora va boshqalar)

Feodal mulkining shakllari bu davrda xam amlok (davlat), mulk va vaqfdan iborat bo'lgan. Farqi shundaki mulk yani konkret shaxslarga tegishli bo'lgan yerlar miqdori bu davrga kelib ancha ko'paygan. Vaqf yerlarning xajmi xam oshgan.

Soliq tizimi xam deyarli o'zgarmagan. Soliqning asosini xiroj tashkil qilgan. Yangi soliqlardan kafsan (amlokdorlar taminoti uchun) olinib boshlangan. Yana bir yangilik: agar Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida soliq natura shaklida

olingan bo'lsa XIX asrning boshlaridan etiboran pul bilan olinadigan soliq xam ko'paya boshlagan. Qishloq xo'jaligi, xunarmandchilikda qullar mehnatidan foydalanish davom etgan. Qullar asosan Janubiy Ozarboyjon va Volga bo'yi asirlaridan iboraat bo'lgan

Amirlik tabiiy xom ashyo zaxiralariga boy edi. Lekin feodal ishlab chiqarish munosabatlari, mutaxassislarning yo'qligi, daqiyunusdan qolgan texnologiya-bularning barchasi konchilik sanoatining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. O'sha davrdayoq oltin, mis, temir, ko'mir, neft, qimmatbaxo toshlar, marmar, grafit zaxiralari aniqlangan edi. Lekin ulardan tabiiy boyliklarni qazib olish primitiv usullar bilan, juda oz miqdorda amalga oshirilardi. Qazib olinib eritilgan metall aholi ehtiyojini qondira olmas edi. Shuning uchun Buxoro amiri Rossiya xukumatiga tabiiy boyliklarni qazib olishga yordam berishni so'rab murojaat qiladi.. Lekin ish tabiiy boyliklarning yangi zaxiralarini aniqlash bilan chegaralanadi. Ularni ishga solish uchun katta kapital mablag'lar zarur edi.

Amirlikda hunarmandchilik, ayniqsa uning to'qimachilik sohasi nixoyatda rivojlangan edi. Maxsulot o'rta asrlar texnologiyasi bilan primitiv usulda ishlab chiqarilgan. XIX asrga kelib dunyoning yetakchi mamlakatlarida yangi texnologiya joriy qilinib, fabrika zavodlar ishlab chiqarishi vujudga kelgan edi. Lekin Buxoro bu jarayondan chetda edi. Ishchi kuchi va xom ashyoning arzonligi Buxoro amirligida yetishtirilgan maxsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qoldi. Shuning uchun amirlikda yangilikga intilish vujudga kelmadi. Rus savdogarlari xam amirlikda xunarmandchilikning rivojlanishidan manfaatdor edilar. Chunki bu soxa rivojlanmasa aholi Rossiyadan kelayotgan qimmatbaho mahsulotlarni sotib ola olmas edi. Shuning uchun ular Buxoro xunarmandlari mahsulotlarining Rossiya va Yevropa bozorlarida sotilishiga xatto yordam xam ko'rsatgan edilar.

XIX asrning o'rtalariga kelib temirchilik, misgarlik mahsulotlari Rossiyadan keltirilgan xom ashyodan ishlab chiqarila boshlandi. Xunarmandchilikning taraqqiy etganligi savdo munosabatlarining kengayishiga sharoit yaratdi. Buyuk Ipak Yo'li faoliyatining to'xtashi savdoga salbiy tasir etgan bo'lsada, savdo xajmi ko'payganligi kuzatildi. Lekin Buxoro amirligida savdo sotiq ishlarini naxzorat qilish, uni tartibga olish, mamlakat uchun istiqbolli yo'nalishlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratishga etibor berilmadi. Qanday tovar olib kelinganligiga qaramay uning umumiy qiymatidan boj soliqlari va boshqa to'lovlar olinaverdi. Mahalliy va xorijiy savdogarlar manfaatlari XIsobga xam olinmas edi, ximoya ham qilinmas edi. Bu esa o'z navbatida birinchi navbatda mamlakat, halq manfaati yo'lida emas o'z manfaati yo'lida mehnat qilishga olib keldi.

Buxorodagi ichki savdo asosan oziq ovqat va kishilar ehtiyojini qondiruvchi xunarmandchilik maxsulotlari savdosidan iborat bo'ldi. Amirlikdagi

savdoning markazlari Buxoro , Samarqand va Qarshi shaxarlari bo'lgan. Narx navo asosan ana shu shaxarlar bozorlarida belgilangan. Buxoroda savdo yanvar may oylarida juda avjiga chiqqan. Ana shu davrda yarmarkalar ishlagan. Shaxarda chet ellik savdogarlar uchun maxsus 10ta karvonsaroy qurilgan edi. 1840 yillarga kelib karvonsaroylarning soni 24 taga yetgan. Amirlik savdosida muhim o'rinni Rossiya egallagan. 1787-1796 yillarda Buxorodan 4,5 mln rubllik maxsulot Rossiyaga keltirilgan. Xudi shu vaqtda Rossiyadan Buxoroga 3,6 mln so'mlik maxsulot eksport qilingan. XVIII asrning oxirlarida Buxorodan katta miqdorda oltin va kumush keltirilgan bo'lsa XIX asrdan boshlab aksincha Rossiyadan Buxoroga oltin va kumush tangalar olib keltirilgan (80% tovar, 20% oltin va kumush tanga). XIX asrning o'rtalariga kelib bir yilgi import va eksport xajmlari 4 mln rubldan iborat bo'ldi.

Buxoro amirlari muntazam olib borgan urushlar katta mablag' sarflashni talab qilgan. Xarbiy xarajatlarni qoplash maqsadida amirlar qo'shimcha soliqlar joriy qilgan. Bunday soliqni xatto amiri Masum deb nom olgan Shoxmurod xam joriy qilgan edi. Bu soliqning nomi jul bo'lib u 20 tangani yoki 4 oltin rublni tashkil qilgan. Aholidan soliq to'plash viloyat bek, xokimlari, amlokdorlari tomonidan amalga oshirilib, ular soliqning anchagina qismini o'z ixtiyorlariga qoldirish huquqiga ega bo'lganlar. Soliq miqdori soliqchilar tomonidan aniqlangan. Bu xaqda maxsus daftarga qayd qilingan. Lekin undagi malumotlarni xech kim tekshirmagan. Daftar ichidagi malumotlar bek va amlokdorlarning siri bo'lib qolavergan. Bunday xolat suiiste'molchilikni avjiga chiqarib yuborgan. Xalqning aXVoli, ayniqsa qurg'oqchilik va qahatchilik yillarida og'irlashgan. Masalan, 1809 va 1811 yillarda yog'ingarchilik oz bo'lishi oqibatida lalmi yerlardan xosil olinmagan. Sug'oriladigan yerlardan olinadigan xosilning miqdori kam bo'lgan. Mamlakatda boshlangan ochlikning ustiga 1810 yil 16 mayda kuchli tabiiy ofat bo'ron natijasida cho'lga yaqin bog' va ekinzorlarni qum bosadi. Bundan tashqari 1810 yil qishi xam qattiq kelgan edi. Natijada oziq ovqatlarning narxi keskin ko'tariladi. Bug'doy defisit maxsulotga aylanib, bozorlar bo'shab qoladi. Ochlik mamlakatning anchagina xududlarini qamrab olgan sharoitda amir va uning yaqinlari xalqqa yordam qo'lini cho'zmaydilar.. Fazablangan xalq Buxoroning Registon maydoniga to'planadi. Qo'rqib ketgan amir Buxorodan qochadi. Ulamolar xalq orasiga kirib borib ochlikdan qutilishning yagona yo'li toat ibodat qilish va Ollohdan madad so'rashda deb aytadilar. Baxovuddin Naqshbandiy mozori atrofiga to'plangan xalq 3 kun davomida toat ibodat qiladi. Bu orada amir sarbozlari Buxoroliklarning uylarini tintuv qiladilar. Topilgan bug'doy davlat foydasiga musodara qilinib 1 botmonini (8pud) 5 oltin rublga sota boshlaydilar. Oddiy xalq uchun bu juda yuqori narx bo'lgan. Norozi bo'lgan xalq mamlakatning turli xududlarida qo'zg'olonlar ko'taradilar. Lekin ularning barchasi osonlik bilan bostiriladi. Chunki ular stiXIyali, rejasiz boshlangan va bunt , isyon shaklida amalga oshirilgan. Bunday xarakatlarni bostirish muntazam

qo'shinga ega bo'lgan amir uchun unchalik og'ir vazifa emas edi. Ko'tarilgan qo'zg'olonlar orasida eng uzoq vaqt davom etgani va bostirilishi qiyin bo'lgani 1821-25 yillarda Miyonqolda ko'tarilgan Xitoy qipchoqlar qo'zg'oloni bo'ldi. Bu qo'zg'olonga Zarafshon vohasining boshqa hududlari xam qo'shiladi va u ommaviy tus oladi. Qo'zg'olon boshlanishiga 1821 yilda xiroj to'plash vaqtida yo'l qo'yilgan suiste'molchilik sabab bo'lgan Amir yuborgan qo'shin qo'zg'olonni bostira olmagan Amir Nasrullo xokimiyatga kelgandan keyingina, 1825 yilda qo'zg'olon shavqatsiz bostirilgan. Bu qo'zg'olonlar stixiyali, aniq bir dasturga ega bo'lmagan qo'zg'olonlar bo'lganligi tufayli mag'lubiyatga uchrashi aniq edi. Uning o'zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o'tgan. H. "al-Fa-void al-alfiya" nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan. U hukmronligi davrida Buxoroda Chor minor va Xalifa Niyozqul madrasasi (1807), masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurilgan, Xalifa xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda H. onasiga atab maxsus madrasa, Qarshida Ali mad-rasasi va Mir Muhammad madrasasini ham qurdirgan. H. Buxorodagi Jo'ybor mavzeidagi Eshoni Imlo qabristonida otasi Shohmurod yonida dafn etilgan. Amir Haydar 1826 -yilda vafot etganidan so'ng uning ikkita katta o'g'illari amir Xusayn (ikki yarim oy) va amir Umar (to'rt oy) qisqa muddat taxtga utirib, o'z ukalasi Nasrullo tomonidan o'ldiriladilar. Shundan so'ng taxtga amir Haydarning uchinchi o'gli Nasrullo utirdi.

Amir Nasrulloning xukmronlik davri (1826-1860 yy.) avvalo. Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodagonlarning boshboshdoqliklariga barxam berish bilan izoxlanadi. Amir Nasrullo xokimiyatni boshqarishda nixoyatda qattik, qo'llik siyosatini olib bordi. O'zining beraxmlik siyosati tufayli amir Nasrullo "qassob amir" degan nomga sazovor bo'lgan edi. Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan buysunmas maxalliy xokimlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Bu borada Shaxrisabz, Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan eng yirik mustaqil viloyat xisoblanardi. Shuning uchun xam amirning siyosatidan norozi bo'lgan ko'plab amaldorlar Shaxrisabzga qochib panox topganlar. Amir Nasrullo 1832- yilda Shaxrisabzga qarshi urush boshlab, 32 marta yurishdan so'ng 1552-yilda Shaxrisabz va Kitobni buysundirishga erishadi. Amir Nasrullo Kukon va Xiva xonlari bilan x.am urushlar olib bordi. U 1842 yilda Khukonga yurish kilib uni egalladi. Ammo, bu paytda Xiva xoni Ollokhulixon Buxoro chegaralariga xujum kilgan-ligini eshitgach, Ehukonga uz noibini koldirib orkaga kaitishga majbur buldi. Amir Nasrullo uz kushinlari bilan Xivaga yurish kilib, Xazoraspni kamal sildp. Ammo, mag'lubiyatga uchrab kaytio ketishga majbur buldi. Amir Nasrullo uz xukmronligi davrida Uratepa va Xujand uchuy Kuhon xoni bilan tuxtovsiz urushlar olib bordi. Buning natija-sida shaxarlar hulda-kulga uti b kupgina vaironagarchiliklar kelib chik,di, talon-talojlik avj oldi. Manbalarga kura,

Kukondan Keshgacha bo'lgan barcha mamlakatlar-ni buysundirgan amir Nasrullo Buxoroning amaldagi oxirgi mus-takhil xukmdori bulib qoldi.

Amir Nasrullodan so'ngtaxtga uning ugli amir Muzaffar (1860-1885 yy.) utirdi. U mangitlar sulolasi-dan bo'lgan turtinchin amir bulib, uning 25 yillik xukmronlik davrida juda kup vohealar sodir buldiki, ulardan eng ayanchlisi - Buxoro amirligining Rossiya imperatori vassaliga aylanishidir. Amir Muzaffar o'z hukmronligining dastlabki yillarida ulamolarga deyarli e'tibor bermadi, ular bilan biror-bir masala yuzasidan maslaxat qilmadi. Ammo.1868 yilda amir ruslardan mag'lubiyatga uchragach. ulamolarga yon berishga majbur buldi. Chunki ula-molar maxalliy ax.olin ruslarga qarshi kurashishga da'vat etgan edilar. Lekin fursat kuldap boy berilgan edi. Ulamolarning xadk-ni kutarishi xam. amirning ugli Katta Tura (Abdumalik). Kitob va Shaxrisabz beklarining sa'y-xarkatlari xam besamar ketdi. Zira-bulok yakinidagi jangda mag'lubiyatga uchragan amir Muzaffar rus-lar tomonidan tuzplgan shartnomaga imzo chekishga majbur buldi. Unga kura amir Uratpa. Jizzah Zarafshon voxasi xududlaridak maxrum buldi. rus xukumatiga 125 mnng tillo mikdorda govon tulay-digan buldi hamda Buxoroning Rossiyaga vassalliginn tan oldi. Amir Muzaffar xukmronligi davrida amirlik xududlari ancha qisqardi. Bunga avvalo rus bosshni sabab bo'lgan bulsa, katta qiyinchilik bilan buysundiriligan SHaxrisabz va Kitob beklplari yana Buxoroga buysunishdan bosh tortdilar. Undan tashkari, ruslarga tulangan katta tovon evaziga amirlik xazipasi bushab koldi. Amir uz xazinasini tuldirish uchuy kozilar va raislarga axolndaiturli xil yigimlar yigishga ruxsat berdi. Chunki bu yigimlarning katta kismi turli xil sovgalar va in'omlar tarikasida xazinaga kelib tushardi. Amir Muzaffar ugli Abdulaxadni taxt merosxuri deb e'lon kildi va usha yttli uni Rossiya imperatori Aleksand Aleksandrovichning taxtga utarish marosimi tantanasita katnashish uchun Moskvaga junatdi. Podsho Aleksandr III ga Buxoro yulduzi ordeni topshirildi va Abdulaxad xakhikiy taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdnklandi. 1883-yilda esa amir Muzaffar Rossiya imperiyasining I-darajali Mukaddas Anna ordeni bilan takdirlandi. Arxiv ma'-lumotlariga Karaganda, bu mukofotni Buxoroga imperiyaning nu-fuzli amaldorlaridan biri - general-mayor, knyaz Vitgenshteyn ooshchiligidagi maxsus elchilar guruxi olib kelgan.

Amir Muzaffar 1885 yil 31 oktyabrda kasallik tufayli vafot etadi. Uning ugli amir Sayyid Abdullaxad 1885-1910 yillar Buxoro amirligi taxtini boshkardn. Abdulaxad 14 yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Russayyoxlarining ma'lumotlariga kura u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885 yil 4 noyabrda amir Muzaffarni Buxoro arkida ok kigizga utirgizib, taxtga utkazish marosimi bulib utdi. Amir Abdulaxad sayoxat kilishni yaxshi kurgan. U turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburut, Kiev, Odessa. Ekaterinaslov, Boku, Tiflis. Botumi. Sevastopol. Bogchasaroy kabi shaxarlarda bo'lgan. Amir xar yili Kavkazda, Qrim yoki Yaltada

dam olgan. Uning xukmronligi davrida qiynoqlar, o'lim hukmi va eng daxshatli jazo. Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulaxad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chikarish, telefon liniyalari va temir yo'llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi. Abdulaxad amirlikdagi harbiy kuchlarga aloxida e'tibor bergan. YOshlpk chogidayok bulajak amir uz garnizonida xarbpay mashklar utkazib. Karmana kal'asni yaxshi xarbiy xolatda tutgan. 1895 yil boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yulga khuyilgan. Keyinchalik xam amir Abdulaxad o'z qo'shinini xarbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan. Amir Abdulaxad 1910 yil 22 dekabrda buyrak kasalidan vafot etgach 1911 yil yanvarda uning ikkinchi ugli Sayyid Mir Olim taxtga utiradi. Olimxon 1893-1896 yillarda Peterburgda ta'lim olgan. Undan so'ng avval Kharshi viloyatiga, keyin esa Karmanaga xokimlik qilgan. 1911-1920 yillar Buxoro taxtini boshqargan amir Olimxon Buxoroda sovet xukumati urnatilgach Afg'onistonga chikib ketdi va 1944 yil Khobulda vafot etdi. Amirlikning xududi, ma'muriy tuzilishi va axoliev. U rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavkeiga ega bo'lgan. katta xududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga kura, XVIII asrning urtalariga kelib Buxoro amirligi xududlarida birmuncha uzga-rishlar sodir buladi. Bu davrda Buxoro xukmdorlari uz tasarruflarida Buxoro shaxri va uning atrofidagi Vobkent. Bijduvon. Korakul, Varoza tumanlari, Kashkadaryo va Miyonkol voxalarini saklab kololgan edilar. Xujand, Toshkent, Xisor vakti-vakti bilan esa Ruzor, Shahrisabz, Nurota. shuningdek Amudaryoning uning soxilidagi Balh Andxay, Maymana, Badaxshon va Shibirgonlar xam Buxoroga vassal bulishiga kharamay unga itoat etmay kuyganlar. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi - so'nggi ashtarxoniylar davridagi uzaro kurshalar, markazdan kochuvchi kuchlar mavheiningusishi edi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mangitlar sulolasi hukmronligi urnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustaxkamlana boshlaydi. SHu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy xududini Samarkand va Buxoro shaxarlari-ni uz ichiga olgan Zarafshon voxasi tashkil kilardi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi xududiga Zarafshon xohshda Kashkadaryo voxalaridan tashkari Surxon voxasi. Xisor. Xujand, Uratepa, Panjikent kabi axoli zich joylashgan tumayalar, Janubiy Turkmanistonning katta kismi. jumladan Chirchikdan to Murg's daryo-sigacha bo'lgan xududlar kirardi. Bu davrda Buxoro amirligi xududlarining kengayishiga acocirfi sabab - mangitlar sulolasinting markazlashgan davlat barpo etishga intilishi edi. XIX asr boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg'oniston. ikkinchi tomonidan Xiva xonligi. uchinchi tomondan kozok juzlari va turtinchi tomondan Kukon xonligi xududlari bilan chegaradosh edi. Buxoroning so'nggi amiri Sayyid Amir Olimxonning 1927 yilgi ma'lumotlariga kura. XX asr boshiga kelib "Buxoro mamlakati Amudaryoning

sharkiy soxillaridan. ya'ni.Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho'zilgan.

Buxoro amirligi Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayinlanadi.1743 yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi.Nodirshoh 1747 yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'liga olishga kirishadi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Muhammad Rahim 1756 yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, Mang'itlar sulolasiga asos soladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi.Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi. Muhammad Rahim xukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi.Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi.Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi.Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi.Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi.O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi.Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina beklklarga - Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi.Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zg'olonini bostirib, ularning xarbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi.Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istexkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi.Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi.Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi.Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, xokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi.Doniyolbiy qo'shinlar xarajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida

minglab odamlar qurbon bo'ldi. Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralari ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'implar miqdori kamaytirildi. Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsada, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari xujunga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinar, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva mollari keltirilardi. Markazlashtirish siyosatini amalga oshirar ekan u avvalo o'rta zvenodagi amaldor va zodaganlarga, dexqon, xunarmand va savdogarlarga suyanadi. Katta vazifalarni egallab turgan yirik feodallar istefoga yuboriladilar Ularning o'rniga Muxammad Raximbiy o'z qarindoshlarini va oddiy oilalardan chiqqan amaldorlarni tayinlay boshlaydi. Bu esa yirik feodallar qarshiligining kuchayishiga olib keladi. Ular fitnalar uyushtiradilar. O'zlariga tegishli xududlarda qo'zg'olonlar ko'taradilar.

Nodirshox qo'shinlari mamlakatni tark etayotganda Muxammad Raximbiy zamonaviy qurollar, zambaraklar, miltiqlar bilan qurollangan bir qism askarlarni o'zining Xizmatiga olgan edi. Ana shu zamonaviy qurollangan askarlar xarbiy xarakatlarni Muxammad Raximbiy foydasiga xal qildilar. XIsor, Kabadiyon, Boysun, Urgut, Shaxrisabz, Fuzor xududlariga uyushtirilgan yurishlarida Muxammad Raximbiy g'alaba qozondi. Mag'lub bo'lgan feodallar Buxoroga keltirilib endilikda davlat ajratgan maosh XIsobiga yashashlari aytiladi. Ular o'zlari tushgan vaziyatdan norozi bo'lib fitna uyushtirmoqchi bo'lganlari xaqida habar olingach 1752 yil 9 mayda bitta qo'ymay qirib tashlanadilar.

1753 yilda Buxoro devorlarini qayta tamirlab Muxammad Raximbiy xarbiy yurishlarini davom ettiradi va Panjekent, Yoriy, Falgar, Kshtut, Urgut, Jizzax va Zomin xududlarini bo'ysintiradi.

1756 yil 17 dekabrda o'zbek urug'lari: mang'it, Xitoy-qipchoq, baxrin va saroy urug'larining amirlari Muxammad Raximbiyni oq kigizda ko'tarib xonlik taxtiga o'tqazadilar va uni Buxoro amiri deb elon qiladilar.

Ashtarxoniylar Abulfayzxondan farqli ravshda u mamlakatni qatiqqo'llik bilan boshqardi, bo'ysunmaganlarni shafqatsiz jazoladi. XIsor, Denov, Dushanbe, Boysun, Termiz xududlariga xarbiy yurishlar uyushtirib ularni amirlikka bo'ysuntirdi. U Xorazm taxtiga o'z odamini o'tqazib, qisqa muddatga bo'lsada Xorazmni xam amirlikka qo'shishga muvoffaq bo'ldi. Toshkent, Qo'qon, Marv,

Balx, Qunduz xukmdorliri xam Muxammad Raximbiyni o'z xukmdorlari deb tan oladilar.

1758 yil 24 martda Muxammad Raximbiy olamdan o'tgach mang'itlar uning amakisi Doniyolbiyni amirlikka nomzod qilib ko'rsatadilar. Markazlashtirish siyosatidan norozi bo'lgan viloyatlar xokimlari qo'zg'olon ko'taradilar. Ularga Kenagas, Yuz, Baxrin, Berkut va Saroy urug'lari boshliqlari xam qo'shiladilar. Feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar joniga tekkan xunarmand va dexqonlar Doniyolbiyni qo'llab quvvatladilar. Doniyorliy Buxoroliklar yordamida feadallar isyonini bostiradi. Isyonchilar shavqatsiz jazolangan bo'lsalarda, qarshilik to'xtamaydi. Natijada uning xokimiyati ancha cheklanadi. Fikrimizni quyidagi fakt tasdiqlashi mumkin. 1781 yilda rus xukumati Doniyolbiyga savdo shartnomasini tuzishni taklif etganda u 92 ta qabila boshliqlarining fikrini bilmasdan turib bu taklifga javob bera olmasligini bildirib xat yozadi. Bu xat markaziy xokimiyat ancha cheklanganidan dalolat beradi. Shaxarliklar bu xolatdan albatta rozi emas edilar. Bundan tashqari Donyorliy qo'shinni taminlash uchun yangi soliq joriy qiladi Bunga javoban 1784 yilda Buxoroliklar qo'zg'olon ko'taradilar. Doniyolbiy iste'foga chiqib taxtni o'g'li Shoxmurodga topshirishga majbur bo'ladi. Amiri Masum - Shoxmurod (1785-1800yy) kamtarin turmush tarzini kechirgan, din aqidalarini o'zlashtirib, taqvodor inson nomini qozongan shaxs edi. U markaziy xakimiyatni ancha mustahkamlashga erishadi. Shohmurod o'z qo'li bilan, shaxar aholisi ko'zi oldida, Arkda, Rahimbiy davridayoq katta xokimiyatga erishgan va xalqqa nisbatan adolatsizlik qilgan Davlat qushbegi va Nizomiddin Qozikalonni o'ldiradi va yirik feodallarga kim amirga qarshi borsa uni xam shunday jazo kutishini aytadi. Shoxmurod noshariy soliqlarni (xiroj, zakotdan tashqari) bekor qiladi. U amir unvoni bilan davlatni boshqargan. Taxtga esa Donishmandcha, Abdulg'ozilarni o'tqazadi.

1785 yilda Shohmurod pul islohotini o'tkazadi. Ungacha tilla va kumush tangalar tarkibida mis bo'lsada, ularning qiymati majburiy ravishda toza tilla va kumush tangalarga tenglashtirilgan edi. Shoxmurod probasi baland oltin va kumush tangalarni zarb qila boshlaydi. Bundan tashqari u aholiga malum haq olish evaziga Saroy qoshidagi pul zarb qiladigan ustaxonada o'z oltin va kumushlaridan tangalar zarb qilib berishga ruxsat beradi.

Shoxmurod sud tizimini demokratlashtirdi va unga shaxsan o'zi raxbarlik qildi. Viloyat va tumanlardagi qozilarni amirning o'zi tayinlar edi.. Ular o'z faoliyatlarida amir tomonidan maxsus ishlab chiqilgan huquqiy traktatga asoslanishlari lozim edi. Buxoroda 40 kishidan iborat Oliy Sud palatasi tuziladi va bu palata davlat ahamiyatiga ega bo'lgan va qiyin, munozarali ishlarni ko'rar edi. Palata ishida amirning o'zi ishtirok etgan. Bu palataga shariatqoidalari amaldorlar va boylar tomonidan buzilsa oddiy aholi vakillari, to xatto qullar xam ximoya so'rab murojaat qilishlari mumkin edi.

Shoxmurod qo'shinni moliyaviy taminoti tartibini o'zgartiradi. Lashkarboshilarga qo'shinga rahbarlik qilish evaziga berilgan yer mulklar tortib olinib, vazifasiga qarab maosh to'lanadigan bo'ldi.. Xurosonga xarbiy yurishlar tashkil qilinib olingan o'lja shariat qoidolari asosida taqsimlandi. Amudaryoning so'l qarg'og'idaggi yerlar bu yurish natijasida amirlikka qo'shib olindi. Murg'ob vohasi ,Marv,, Balx yana Buxoro davlatiga qo'shildi. Mamlakatda markaziy xokimiyatni mustahkamlash, viloyatlarni bo'ysundirish maqsadida u Karmana , Shaxrisabz va Xo'jandga xarbiy yurishlar qildi. Afg'on hukmdoriga qarshi olib borilgan urushlar natijasida Shoxmurod Janubiy Turkistonni mamlakat tarkibiga qo'shishga erishdi Shoxmurodning ana shunday siyosati Markaziy xokimiyatni birmuncha mustahkamladi. Lekin uning o'g'li Amir Xaydar bu siyosatni davom ettira olmadi. Xokimiyat almashayotganda boshlangan ommaviy qo'zg'alonlar Xaydarni o'zbek bek va biylariga murojaat qilishga majbur qildi. Natijada ularning tasiri birmuncha kuchaydi.. Lekin shunday bo'lsada Shohmurod islohotlari o'zining samarasini berdiva Buxoroni markazlashgan davlat sifatida, absolyut monarXIya xukmronligi o'rnatilgan davlat sifatida saqlanib qolishiga sharoit yaratdi.

Amir Xaydar davrida soliqlar miqdori oshdi, davlat apparatidagi amaldorlar soni 4000 taga yetdi. Qo'shin miqdori xam ko'paydi. Faqat Buxoroning o'zidagina doimiy qo'shin tatkibida 12000 sarboz bor edi. Xarbiylar taminotining yarmi, maoshidan yarmi bug'doy berishdan iborat bo'lgan. Ular piltal miltiq, qilich, kamon va zambaraklar bilan qurollangan edilar.

Markaziy xokimiyatni mustahkamlash maqsadida u Shaxrisabz, Panjikent, Miyonqol, O'ratepa xududlariga xarbiy yurishlar qildi. Uning davrida Xiva xonining talonchilik yurishlari avjiga chiqdi. Xaydar qo'shin safiga dehqon va xunarmandlarni chorladi va Xivaliklarni mamlakatdan quvib chiqardi. Xiva xoni Eltuzarxon Amudaryoga cho'kib ketdi.

Axmad Donish malumotlariga ko'ra Amir Xaydar davri to'xtovsiz urushlar davri bo'lgan ekan. Har 3 – 6 oyda yangi urush boshlangan ekan. Uning davrida qo'shinning asosini o'zbek urug'lari emas o'troq aholi tashkil qila boshladi. Bu o'zbek urug'lari zodagonlarining tasirini susaytirdi. Xaydar davrida Shoxmurod davrida boshlangan. Buxoroning islom dini markazlaridan biriga aylanishi va ulamolarning kuchayishi jarayoni davom etdi.

Xulosa.

Buxoro amirlarining faoliyatini o'rganish davomida ularning qanday hokimiyat tepasiga kelishi, davlatni boshqarishdagi siyosati, ular olib borgan islohotlar haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Buxoroda Mang'itlar sulolasidan oldin hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi hamda ularning hukmronligi haqida ko'plab ma'lumotlar ham mavjud. Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid yozma manbalar ichida Maxmud ibn Vali (1595-1640) ning «Baxr ul-asror fi manokib ul-axer» (Olijanob kishilarning shon shavkati haqida sirlar dengizi), Mir Muhammad amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Mukimxoniy», Xo'ja Samandar Termiziyning «Dastur al-Mulk», Abulg'ozi Bahodurxonning «Shajarai Turk», Muhammad Amin Buxoriyning «Muhit ut-tavorix», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon Tole' (Abdurahmon Davlat) ning «Tarixi Abulfayzxon» asarlari muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Buxoro amirligi Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743 yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747 yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'lga olishga kirishadi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'illari Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Muhammad Rahim 1756 yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, Mang'itlar sulolasiga asos soladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha Mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi. Muhammad Rahim xukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar. 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 y.
3. I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-T.: «O'zbekiston»1999 y.
4. Istoriya Uzbekistana.Tom-III.T.: «Fan»1993g
5. O'zbekiston SSR tarixi.I-II tom.T.: «Fan» 1970y.
6. Mo'minova R va boshqalar.O'zbekiston tarixi.O'quv qo'llanma.T.: «O'qituvchi»1994y.
7. KarimovSH. SHamsutdinov R. Vatan tarixi.2-kitob T.: «SHarq» 2003y.
8. O'zbekiston tarixi.T.: «Yangi asr avlodi»2003y.
9. Muxammadjonov A.Qadimgi Toshkyent.: «Fan»1998y.
- 10.“O`zbekistonning yangi tarixi” 2-kitob T.“Sharq”- 2000, 10-40 betlar.
- 11.Usmonov Q, Sodiqov M “O`zbekiston tarixi” (1917–1991-yillar) “Sharq” 2000, 5-16 betlar.
- 12.A'zamxo'jayev S. “Turkiston Muxtoriyati” T.“Ma'naviyat” 2000 3-108 betlar.
13. Internet ma'lumotlari:
www.ziyonet.uz
www.google.org